

**O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARIDA
YUZAGA KELGAN MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI**

D.A.Ergasheva

Buxoro viloyati Romitan tumani «Qahramon» MFY
Qahramon qishlog'i 9-umumta'lim maktabi

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik-psixologik yondashuv asoslari, zamon talablariga mos kasb- hunar tanlashning samarali yo'llari yoritib berilgan. Avvalambor maqolada o'quvchilarni kasb- hunarga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari hamda , amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha ma'lumot yoritilib berib borilgan. Temperament tiplari ularni kasb tanlashdagi ahamiyati haqida ham tushuncha berilgan..

Kalit so'zlar: Temperament, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar, ijtimoiylashtirish, psixologik muammo, ruhiy ko'tarinkilik, o'z-o'zini baholash, texnologik ta'lim, uzluksiz tizim, kasbiy ta'lim

Hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri bu kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni ham aqlan ham jismonan ham ruhan har tomonlama yrtuk, barkamol qilib tarbiyalashdan iborat bo'lib qolgan . Zero tez va shiddat bilan rivojlanib borayotgan «Axborot texnologiyalari» davrida biz kattalarning asosiy maqsadimiz bolalarga qaratilmog'i lozim. Ko' pincha ish bilan ro'zg'or tashvishlari bilan ovora bo'lib, bola tarbiyasiga e'tibor bermay qo'yishadi. Ular katta bo'lib qolishgach esa yomon yo'lga kirib qolib, qaytarish mushkul ahvolda bo'lib qoladi. Bu hammaga tegishli bo'lmasada ahyon-ahyonda uchrab turadi.

Bunga misol qilib butun dunyoni dahshati bilan larzaga solgan «Ko'k kit»ni olish mumkin. Mana shunday voqealar sodir bo'lmasligi uchun go'daklarni dunyoga keltirmay turib ularni kelajagini o'ylab olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xalqimiz orasida shunday bir rivoyat yuradi. Avitsina sohasi namoyondalaridan biri ulug' bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino oldilariga bir ota-ona endigina dunyoga keltirgan farzandini olib kelishibdi. Unga ta'zim aylab shunday deyishibdi: «Farzandimiz tarbiyasini sizga ishonib olib keldik. U ham siz kabi kelajakda buyuk bir tabib bo'lib yetishsin.» Shunda bobomiz: «Zurriyodingiz tarbiyasiga 9 oy, 9 kun, 9 soat kechikdingiz», - deydi. Ota-ona hayron bo'lib, «Nuridiydami bu yorug' olamga kelganiga atigi bir kun bo'ldi-ku?!», deyishibdi. Shunda ulug' bobomiz «Ha to'g'ri, farzandingiz tug'ilganiga atigi 1 kun bo'lgan lekin bola tarbiyasini ona qornidayoq boshlash lozim.» deb aytgan. Bundan ko'rinib turibdiki har bir ota-ona go'dakni

dunyoga keltirmasdan avvalroq uning kelajagini o'ylashi lozim

Ko'pincha ota-onalar farzandlarini layoqati va qobiliyatini inobatga olmasdan turib unga o'zi kasbini tanlashga qarshilik qiladilar. Bu eng global muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Ya'ni bola o'rniga ota-onalarning o'zlari kasb tanlaydilar. Natijada bola bu kasbni egallab bilmay yarim yo'lda tashlab ketadi yoki o'z kasbini mohir ustasi bo'lib yetishmay sarson- sargardon bo'lib yurishadi..

O'quvchilarga kasb-hunar tanlashlarida avvalambor ularning temperamentlarini inobatga olmoq zarur. Masalan Melahxolig tipiga mansub shaxslardan shifokor, harbiy, uchuvchi kasbini agallashi mushkuldir. Chunki ular sekin qaror qiladilar. Yuqoridagi kasblarni xolerik tipidag shaxslar egallasalar naqsadga muvofiq bo'ladilar.

Flegmatiklardan mashhur rassom, kuchli matematik. shaxmatist chiqishi mumkin.

Hozirgikunda oilada, maktabda, oliy o'quv yurtlarida, korxonada va tashkilotlarda albatta psixologning roli juda zarur. Shuning uchun chet ellarda psixologning o'ri alohida belgilab berilgan.

Pedagog, psixolog, ota-ona, mahalla hamkorligida har bir o'quvchining qobiliyati, layoqati, bilimini inobatga olgan holda ish olib borish zarur. Shundagina kelajagimiz bo'lmish yoshlarning har tomonlama yetuk, xalqimiz uchun kerakli insonlar bo'lib yetishishlari mumkin.

Shuningdek muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning sa'y- harakatlari bilan nafaqat maktabda balki bog'cha yoshidan boshlab «besh tashabbus» asosida iqtidorli, tashabbuskor, talabchan, mahoratli yoshlarni aniqlab ularni shu yo'nalish borasida bir qancha keng miqyosida tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'quvchilarni kasb tanlashi, kelajagi uchun o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lmog'i zarur. Ya'ni qiziqishiga mos kasblar bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Hozirgi kunda bunday ma'lumotlarni o'quvchi televideniyanidan, telefondan, gazeta va jurnallardagi axborotlardan ham topib egallashi mumkin. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-oktabrda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga izgil o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'grisida"gi 473-sonli qaroriga uzluksiz ta'lim tizimida maktab bitiruvchilarining o'z kasbiy qiziqish va layoqatlari asosida ta'limning keyingi turi va bosqichlariga jalb qilinishi, o'zining tayyorlov yo'nalishlariga to'g'ri va samarali yo'naltirishning muhim masalasi sifatida qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar mazmunida qayd etilganidek "umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bu ularni qiziqishlari va moyilliklari, layoqatlari hamda qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish bilan bir qatorda o'smirlarni kasbiy o'zligini anglash va hayot yo'lini

tanlashda maslahat beruvchi omil” sifatida qaralishi nazarda tutilgan. Hukumat qaroralarining ijrosini ta’minlash yuzasidan o’quvchilarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakllantirishda, ularni ta’limning keyingi turiga to’g’ri jalb qilish uchun kasbga yo’naltirishda qo’llaniladigan o’quv-metodik qo’llanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalar, me’yoriy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo’lgan hamda yangilanib, o’zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma’lumotlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog’liqdir. Shu bois ayni vaqtda O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish tizimida tashkil etilgan huquqiy me’yoriy hujjatlar mazmunini yanada takomillashtirish vazifalarini hal etishi borasida bir qator ilmiy-amaliy yangiliklar amalga oshirilmogda.

Binobarin, umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilarining qiziqishlari va moyiliklari, tug’ma layoqatlari hamda qobiliyatlarini aniqlash borasida “O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda qo’llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”ning yangi tahrirdagi majmuasi yaratildi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish va Vazirlar maxkamasining 2004 yil 9 iyulidagi “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to’g’risida”gi 321-sonli qaroriga asosan o’quvchilarni kasb - hunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari samaradorligini oshirish, ularni psixalogik-pedagogik tashxis qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab-chiqarish, amalga tadbiriq etish maqsadida xalq ta’limi vazirligining 2006-yil 17 martda “O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashhis markazining tashkiliy va metodik asoslarini takomillashtirish to’g’risida”gi 60-sonli buyrug’i asosida o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishning zamon talablari darajasida, ilmiy-metodik kengashi, o’quv-me’yoriy hujjatlarining yangi tahriri ishlab chiqildi.

Yosh avlodni kasb- hunar tanlashga tayyorlashda har bir o’g’il-qiz shaxsiy hayotidagi mustaqil yakka tartibdagi xususiyatlar majmuasini nazarda tutgan holda ularning ruhiyatidagi tug’ma imkoniyatlarini, hayotiy ko’nikmalar shaklida tarkib toptirib hamda mustahkamlanib, muhim tamoyil va xarakter xususiyatlariga aylantirmoq joizdir. Aniq bir kasb-hunarga bo’lgan qobiliyat, layoqat, moyillik, iste’dod, iqtidor, qiziqish hamda aql-zakovatning ustunliklariga qarab kasb-hunar tanlashga yo’naltirish bugungi kunning eng muhim ustivor yo’nalishlaridan biri bo’lib hisoblanadi.

Darhaqiqat o’quvchi yoshlarning fanga qiziqishi yoki kasb-hunar tanlashlarini, uni o’rganish hamda malakali mutaxasis bo’lib yetishishiga talim-tarbiya beruvchilarning ma’lakali mutaxasis bo’lib yetishida ta’lim-tarbiya beruvchilarning ma’naviyati, axloqiy fazilati bilimda chanqoqligi, mahorati mehnatsevarligi fidoiyligi bir so’z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy komoloti muhim

ahamiyatga ega. Shuningdek ularning kasb madaniyati, iqtidori ham alohida o'rin tutadi. Zero mutaxassis xodimning mahorati yoki kasb madaniyati qanchalik yuksak bo'lsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo'lishi hammaga ma'lum va ravshandir.

Ma'lumki, hamma kasblar uchun bir xilda taalluqli bo'lgan odob-qoidalari yoki madaniyat qonuniyatlari mavjud. Masalan, Shifokor samimiy, shirinsuxan, tez qaror chiqaradigan, bilimli bo'lish bilan birgalikda qorqmas, kuchli bo'lishi, o'qituvchining kasb madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchi nafaqat bilimdon, balki tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli ham bo'lishi lozim. Demak, mamlakatimizning buyuk kelajagini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalovchi mutaxassis xodimlar, eng avvalo, insoniy sifatlar sohibi bo'lishi, kasb madaniyatini mukammal egallashlari lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

O'quvchilarni ham aqlan ham jismonan ham ruhan hammasini baravar tarbiyalasakgina ular o'z kasbini mohir ustasi bo'lib yetishishi mumkin. Bu uchun albatta yoshligidan bolalarning ko'nikma, malakalarini shakllantirib borish lozim. Guruch kurmaksiz bo'lmasligiday ayrim ota-onalar bolani juda yoshligidan erkalab, papalab os'tirishadi. Natijada bola o'z ota-onasini faqat ta'minotchi sifatida qabul qilishadi. Ularning talablari kundan-kun ortib boraveradi. Bu talablarni bajara olmay qolgan ota-ona o'z zurriyodidan voz kechishgacha boradi. Lekin endi juda kech bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.ziyo.net
2. Ergash G`oziyev kitoblari
3. E.I. Rogov kasb-tanlash
4. Va boshqa internet resurslari